

O'zbekiston botanikasi uchun xalqaro hamkorlikning yangi qirrasi

2022-yilning 26-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutida Isroilning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Zexavit Ben Xilel tashrif buyurdi va Institut direktori Davron Dehqonov bilan uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda tomonlar o'simliklar bioxilma-xilligini saqlash, unda zamonaviy sug'orish texnologiyalarini qo'llash hamda FA Botanika instituti va Ierusalim Botanika bog'lari o'rtasida ilm-fan sohasida ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari bo'yicha fikr almashildi.

Uchrashuv davomida tez kunlarda tomonlarning urug' almashinish va ularni yetishtirish, Toshkent Botanika bog'ida Isroil davlati florasi burchagini tashkil etish, o'zaro xalqaro ilmiy loyihalarni amalga oshirish, bioxilma-xillikni saqlash borasida o'zaro tajriba almashinish yo'nalishlarini o'z ichiga olgan Anglashuv memorandumini imzolashga kelishib olindi.

Uchrashuv ilmiy-amaliy jihatdan sermahsul va do'stona ruhda o'tdi.